



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 306-311 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>



### RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB TRANSPORT XIZMATLARI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRITISH

**Ibadullayev Nurali Eshniyazovich**

iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent. Samarqand  
iqtisodiyot va servis instituti.

**Haydarov Jahongir Aktamovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,  
“Real iqtisodiyot” kafedrasи assistenti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirishning o‘ziga xos jihatlari va xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan. Aynan raqamli texnologiyalardan faol foydalanish ushbu sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirishning eng istiqbolli yo’llaridan biri ekanligi isbotlangan. Transport xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirishning konseptual yo’nalishlarini takomillashtiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so’zlar:** transport xizmatlari, raqamli xizmatlar, bandlik, malaka, mijoz, xizmat ko’rsatish zanjiri, “aqli svetaforlar”.

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНФРАСТРУКТУРЫ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Ибадуллаев Нурали Эшниязович**

кандидат экономических наук, доцент. Самаркандинский  
институт экономики и сервиса.

**Хайдаров Жаҳонгир Актамович**

Самаркандинский институт экономики и сервиса,  
ассистент кафедры «Реальная экономика».

**Аннотация.** В данной статье подробно исследованы уникальные аспекты и особенности цифровизации инфраструктуры транспортных услуг. Активное использование цифровых технологий оказалось одним из наиболее перспективных способов повышения экономической эффективности этого сектора. Даны предложения и рекомендации по совершенствованию концептуальных направлений развития инфраструктуры транспортных услуг.

**Ключевые слова:** транспортные услуги, цифровые сервисы, занятость, навыки, клиент, цепочка обслуживания, «умные светофоры».

## IMPROVING TRANSPORT SERVICE INFRASTRUCTURE USING DIGITAL TECHNOLOGIES

**Ibadullaev Nurali Eshniyazovich**

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
Samarkand Institute of Economics and Service.

**Khaidarov Jahongir Aktamovich**

Samarkand Institute of Economics and Service,  
assistant at the Department of "Real Economy".

**Abstract** This article examines in detail the unique aspects and features of digitalization of transport service infrastructure. Active use of digital technologies has proven to be one of the most promising ways to improve the economic efficiency of this sector. Proposals and recommendations for improving the conceptual directions for the development of transport services infrastructure are given.

**Key words:** transport services, digital services, employment, skills, client, service chain, smart traffic lights.

### **Kirish**

Raqamlashtirish inson manfaatlarining har bir sohasiga kirib bordi va katta hajmdagi o'zgarishlarni keltirib chiqardi va texnologiya va innovatsiyalar bilan transport xizmatlarini inqilob qildi. Shahar jamoat transporti sohasida yangi raqamli texnologiyalar va jarayonlarni joriy etish davom etmoqda va COVID-19 inqirozidan keyin tezlashdi. Ushbu o'zgarishlarni transportning barcha jabhalarida, infratuzilma va transport vositalaridan tortib mijozlar bilan aloqalar va yangi raqamli xizmatlar va biznes sohalarini rivojlantirishgacha ko'rish mumkin. Raqamlashtirish mijozlarning talablariga yaxshiroq javob berish orqali shahar mobilligi kelajagini shakllantirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Biroq, bu o'zgarishlar bandlik, malaka va malakaga bo'lgan ehtiyoj va mehnat sharoitlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirish transport sub'yektlariga o'z mijozlariga xizmat ko'rsatish zanjiri (qidiruv, nazorat qilish, to'lovlarni amalga oshirish) bo'ylab integratsiyalashgan raqamli xizmatlarni taklif qilish va o'zlarining transport operatsiyalarini optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlar beradi.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

A.G.Nekrasov, A.S.Sinitsynalarning fikricha "transport xizmatlari infratuzilmasini raqamli transformatsiya jarayonini tezlashtirish uchun bir nechta zamonaviy tendensiyalardan foydalaniladi. Bunday harakatlar sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, kognitiv hisoblash, robototexnologiya jarayonlarini avtomatlashtirish va buyumlar interneti kabi texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi[1]. Fikrimizcha, transport xizmatlari infratuzilmasini raqamli transformatsiya jarayonida raqamli texnologiya sohasidagi xodimlarining yetarli emasligi, transport faoliyatiga ta'sir etuvchi iqlim o'zgarishi, byudjet cheklari, tashkiliy o'zgarishlarni boshqarishning yo'qligi, mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlar, aniq strategiyaning yo'qligi, samarasiz biznes

jarayonlari va ma'lumotlarni samarasiz boshqarish kabi muammolar natijasida sohani raqamlashtirish ortga qolmoqda.

Campos Diez, H.Cansecolarni ta'kidlashicha "transport xizmatlari infratuzilmasini raqamli transformatsiyada muvaffaqiyatga erishish uchun sektor samarali transformatsiya uchun tegishli strategiyalarni yaratish uchun mavjud texnologiyalardan foydalanishi kerak[2]. Degan fiklarni ilgari surgan. Albatta bularning fikriga qo'shilishimiz mumkin. Ammo, transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirishda mamlakat rivojlanish darajasi, joylashuvi, transport xizmatlari turi-shaklidan kelib chiqib dasturlashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, transport xizmatlari infratuzilmasi L.P.Kurakov, V.L.Kurakov A.L.Kurakovlarning fikricha transport xizmatlari sohasi yo'lovchi, yuk va yuk-bagaj tashishni, shu jumladan transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va tegishli xizmatlarni o'z ichiga oladi[3], ularning bajarilishini bashorat qilish faqat transport birligining marshruti bo'ylab transport oqimlarining harakati to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lganda mumkin.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotni amalga oshirishda aloqa xizmatlarini samarali rivojlantirish ko'rsatkichlarini iqtisodiy-matematik usullar orqali tahlil qilish natijasida xulosa va takliflar shakllantirilgan. Bundan tashqari ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda analiz va sintez usuldan ham samarali foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Raqamlashtirish inson manfaatlarining har bir sohasiga kirib bordi va katta hajmdagi o'zgarishlarni keltirib chiqardi va texnologiya va innovatsiyalar bilan transport xizmatlarini inqilob qildi. Shahar jamoat transporti sohasida yangi raqamli texnologiyalar va jarayonlarni joriy etish davom etmoqda va COVID-19 inqirozidan keyin tezlashdi. Ushbu o'zgarishlarni transportning barcha jabhalarida, infratuzilma va transport vositalaridan tortib mijozlar bilan aloqalar va yangi raqamli xizmatlar va biznes sohalarini rivojlantirishgacha ko'rish mumkin. Raqamlashtirish mijozlarning talablariga yaxshiroq javob berish orqali shahar mobilligi kelajagini shakllantirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Biroq, bu o'zgarishlar bandlik, malaka va malakaga bo'lgan ehtiyoj va mehnat sharoitlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirish transport sub'yektlariga o'z mijozlariga xizmat ko'rsatish zanjiri (qidiruv, nazorat qilish, to'lovlarni amalga oshirish) bo'ylab integratsiyalashgan raqamli xizmatlarni taklif qilish va o'zlarining transport operatsiyalarini optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlar beradi. Taransport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirish bo'yicha davlat daturlarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan bir qator iqtisodiy xususiyatlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bular:

Birinchidan, transport xizmatlari infratuzilmasiga yo'naltiriladigan kapitalning kamliyi va xususiy sektorning yetarli darajada (yirik turdag'i transport xizmat ko'rsatish sub'yektlarning mavjud emasligi) jalb etilmaganligi;

Ikkinchidan, transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirish bo'yicha malakali xodim-ishchilarning mavjud emasligi yoki kadrlarning tayyorlanmasligi;

Uchinchidan, transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirish jarayonida raqamli dasturlar, texnologiyalarning qimmatligi, mamlakatimizda keng miqyosda ishlab chiqarishning yo'qligi;

To'rtinchidan, respublikada transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirishga oid qonun, farmon, me'yoriy hujjatlarning mavjud emasligi yoki mavjudlari ham zamon talablariga javob bermasligi;

Beshinchidan, mamlakatimizda transport xizmatlari infratuzilmasi monopol raqobat shaklda faoliyat olib borilyotganligi bilan soha faoliyatini raqamlashtirish bir qator muammolarga duch kelayotganligini ko'rshimiz mumkin.

Albatta transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirish bir qator ortiqcha xarjatlarni oldini olish, tizimda korupsiya holatlarini bartaraf etish, xizmat ko'rsatish sifati va miqdorini ortishiga xizmat qiladi. Birgina transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirish orqali uning faoliyatiga ta'sir qiladigan ijobiy va salbiy o'zgarishlarni tahlil qilishimiz orqali ham buning samarasini aniqlab olishimiz mumkin (1-jadval).

#### 1-jadval

#### **Transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirishning ijobiy va salbiy jihatlari**

<b>Nº</b>	<b>Ijobiy jihatlar</b>	<b>Salbiy jihatlar</b>
1	Xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamayishi	Trasport xizmatlari infratuzilmasi ishsizlikning vujudga kelishi
2	Inson omili bilan vujudga keladigan xavf-xatarlarning yo'qligi	Ko'rsatiladigan transport xizmatlarini ko'raolamasligi ya'ni masofadan amalga oshirilganda ikkilanish jarayonlarining vujudga kelishi
3	Xizmat ko'rsatish jarayonini tezlashishi va buning natijasida kapitalning tezroq aylanishi	Tizimda yashirin iqtisodiyotning ortishi (jamoat transpoti xizmati ko'rsatuvchi korxonalarining to'laqonli raqamlashmaganligi)
4	Xizmat ko'rsatish jarayonida xaridor bilan masofaning yo'qolishi	Aholining transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirish natijasida undan foydalanish bo'yicha ko'nikmasining yetishmasligi
5	Avtomobil transport xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarning xizmatlar sohasidagi ulishini sezilarli darajada ortishi (etkazib berish, eshikdan-eshikkacha	Avtomobil transport xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarning zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanmaganligi
6	Transport xizmatlari infratuzilmasini nazorat qilish, boshqarish va buyurtmalar qabul qilishning ortishi	Transport infratuzilmasining (chegaradagi o'tish shoxobchalarining) yetarlicha rivojlanmaganligi

Keltirilgan 1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilishimiz natijasida transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirish natijasida salbiy jihatlardan ko'ra ko'proq ijobiy jihatlar mavjud ekanligini ko'rshimiz mumkin. Bu esa respublikada mavjud bo'lgan transport

xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirish uning samrali faoliyat ko'rsatishiga xizmat qilishini anglatmoqda.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda transport xizmatlari infratuzilmasini raqamlashtirish natijasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan bir qator sub'yektlar faoliyatini tadqiq etishimiz natijasida uning soha faoliyati uchun samarali ekanlidgini ko'rmoqdamiz. Masalan, Jahon Banki tomonidan 2018 yilda chop etilgan logistika samaradorligi hisobotida O'zbekiston 160 davlat orasida 99-o'rinni egalladi. Hisobotni ishlab chiqishda bojxona samaradorligi, transport infratuzilmasi sifati, xalqaro tashimalarni tashkil qilish osonligi, soha mutaxassislarining bilim va salohiyati, yuklarni kuzatish imkoniyati va yuklarni o'z vaqtida yetkazish darajasi kabi me'zonlar hisobga olingan [4], shuningdek, logistika konsalting firmalari faoliyatini tashkil etilishi natijasida yurtimizda yuk tashish miqdori keskin ko'payganligini ko'rshimiz mumkin. Shuningdek, aholi o'rtasi ko'rsatiladigan taksi xizmatlari raqamlashtirish natijasida bir qator qulayliklar yaratilib berilmoxda. Bu esa insonlarning ortiqcha vaqtini tejashga olib kelmoqda.

### **Xulosa va takliflar**

Shu bilan birlgilikda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ayniqsa yirik shaharlarda transport vositalari uchun yo'llarda xizmat ko'rsatishga mo'ljalangan "aqli svetaforlar"ning o'rmatilishi natijasida shahar ichida vujudga kelayotgan tirbandliklar bartaraf etilmoqda. Ayniqsa bu holat bizning mamlakatimiz uchun juda samarali jarayon hisoblanib hozirgi vaqtida katta shaharlarimizda tirbandliklarning vujudga kelishini bartaraf etishda samarali yechim sifatida qo'llashimiz mumkin hisoblanadi. Buning natijasida tirbandliklarni bartaraf etish hamda ekologik salbiy omillarni yumshatishga xizmat qilishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Nekrasov A.G., Sinityna A.S. (2020). Digital transformation infrastructure and transportation logistics systems. In IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 832(1), 1-6. Doi 10.1088/1757-899X/832/1/012052
2. CAMPOS DIEZ CANSECO H. (2018). Digital transformation in the transportation industry: LATAM analysis. Chinoracký R., Čorejová T. (2019). Impact of digital technologies on labor market and the transport sector. Transportation research procedia, 40, 994-1001. Doi 10.1016/j.trpro.2019.07.139
3. Kurakov L.P., Kurakov V.L., Kurakov A.L.. "Economics and law: dictionary-reference", Moscow: University and school. 2004, 1071
4. Носова, С. С. Экономическая теория : учебник для вузов / С. С. Носова. – М.: ВЛАДОС, 2000. – 520 с.
5. Стаханов, В. Н. Экономика инфраструктуры общественного производства: учебное пособие / В. Н. Стаханов. – Ростов н/Д. : РИСХМ, 1989. –130 с.
6. Лебедева О.А. Транспортная инфраструктура как основополагающий фактор эффективного функционирования экономики страны / О.А. Лебедева, Ю.О. Полтавская, З.Н. Гаммаева, Т.В. Кондратенко // Сборник научных трудов Ангарского государственного технического университета. - 2018. - Т. 1. № 15. - С. 125-130.
7. Серебряков Л.Г. Проблемы стратегического планирования транспортной инфраструктуры региона – инновационный подход // Научные труды Северо-Западной академии государственной службы. – СПб, 2011. – Т. 2. Вып. 1:

Государственная власть и местное самоуправление в России: история и современность. – С. 206-215

8. Иванов М. В. Развитие транспортной инфраструктуры региона: факторы, направления, инструментарий оценки [Электронный ресурс]: дис. ... канд. экон. наук по спец-ти 08.00.05 / М.В. Иванов. - Нижний Новгород, 2016. - 196 с.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

